

TEXNOLOGIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNI PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI

Batirova Sarvinoz Elmurot qizi
Samarqand viloyati Bulung'ur tumanida o'qituvchi

Annnotatsiya: *Boshlang'ich sinf o'quvchilariga texnologiya ta'limi orqali psixologiyasini o'r ganish, ularga ta'lim-tarbiya berishda va ularni har tomonlama barkamol rivojlan Tirishni ta'minlashda mакtabgacha tarbiya muassasalari bilan uzlusiz aloqa olib borishni taqozo etadi. O'quvchi psixologiyasi bilan muntazam shug'ullanib borish muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: uzlusiz ta'lim, qobiliyat, psixologiya, ruxshunos, zaif, sog'lom, fikr, tasavvur, ong, psixomotri, iqtidor.

Uzlusiz ta'lim - tarbiyaning asosi bu - mehnat. Mehnat tufayli inson barcha ezgu niyatlariga erishadi, pok vijdonli insonlarning ishlariga qiziquvchan va qadrlaydigan bo'ladi. Bolalarni maktabda yaxshi o'qishi ularning maktabgacha ta'lim muassasida tayyorgarligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida, ota - onalar yakka holda tayyorlashlari orqali bolalar maktabga ma'lum amaliy ko'nikma va malakalarga ega holda kelishlari ularda his - tuyg'u, tafakkur, iroda kabi sifatlar ozmi - ko'p shakllangan, mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlikka nisbatan qiziquvchan bo'lishi esa maktabda bola shaxsining kamol topishi uchun asosiy zamin hisoblanadi.

O'zbekiston respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq bolalar 1 - sinfga 7 yoshdan qabul qilinadi. Lekin ota - ona farzandini 6 yoshdan boshlab maktabga berishi mumkin. Ammo 6 yoshdan maktabga qabul qilinayotgan bolaning qobiliyati tibbiy xodimlar va ruhshunoslar tomonidan o'rganilishi, ularning xulosalariga asoslanib maktabga tortilishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim - tarbiya ishlarining maqsadga muvofiq ravishda rivojlanishi va yaxshi natija berishi ko'p jihatdan bola shaxsini tarkib toptirish, undagi qobiliyatni to'g'ri aniqlash, mehnatga qiziqishi, ko'nikma va malakasi kabi holatlarning o'ziga xos jihatlari borki, unga yondoshish juda ko'p sifatlarga bog'liq. Buning uchun 1- sinfga qabul qilinayotgan bolalar tibbiyotchilar, ruhshunoslar tomonidan quyidagi toifalarga bo'linadilar:

- Bolalar ruhan sog'lom;
- Jismoniy zaif bo'l magan;
- Fikrlash qobiliyatiga ega;
- Mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlik qobiliyatiga, tushunchaga ega;
- Aqlan zaif emasligi.

Yuqoridagilar aniqlangandan keyin 1 - sinfga qabul qilish mumkin. Ammo bolalar orasida ruhan sog'lom, turli sabablarga ko'ra jismoniy zaiflari ham uchraydi. Bunday

o'quvchilarni qobiliyatlariga qarabtabaqalarga bo'lib o'qitish mumkin emas. Bunday bolalarga o'z vaqtida kerakli maslahatlar berish maqsadga muvofiq. O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar uchun har doim tibbiy xodim, ruhshunos, o'qituvchi va qolaversa ota - ona mas'uldirlar. Kerak bo'lsa ularni maxsus makkablarda o'qitishni yo'lga qo'yish lozim. Izohlanish zarur bo'lgan 1 - 2 -sinflarda o'quv yilining birinchi yarmida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalaridagi miqdoriy baholashdan iloji bo'lsa voz kechish nazarda tutiladi. Bu davrda o'quvchilarga o'z - o'zini nazorat qilish va o'z faoliyatini baholash singari o'qitishning muhim tomonlarini shakllantirib, puxta yo'naltirigan sifatiy baholar qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Ruhshunoslarning ilmiy izlanishlari natijalaridan ma'lumki, bolalarni mehnat olamiga yetaklash uchun eng avvalo, ularning ruhiy olamini bilish, qobiliayti, tasavvuri, tafakkuri aniqlanib, so'ngra ishga kirishiladi. Chunki, o'ylamasdan, faraz qilmasdan ijodiy fikrlash mumkin emasligi ilmiy tadqiqot ishlarda aniqlangan. Inson faoliyatida har tomonlama xayol qilish, tafakkur yuritish muhim hisoblanadi. Bu sifatlar faqat mehnat orqali shakllanib boradi. Shuning uchun ham boshqa fanlar singari mehnat tarbiyasini o'quvchilarga chuqur singdirish lozim. Ikkinchisi asosiy masala bu mehnat ta'limini va yana bir bora mehnat tarbiyasiga diqqat e'tiborni qaratish zarur.

O'quvchilarning mehnati maktabda majburiy mehnatga o'xshab tuyuladi, lekin o'quvchini o'z istagini ham inobatga olish zarur. O'quvchini mehnatga jalb qilish, yomon baho qo'yish, ogohlantirish yoki o'quvchilarning shaxsiy faoliyatiga emas, balki uning boshqa intilishlaridan qoniqish hosil qilishga qaratilgan mustaqil ishlari: jismoniy qobiliyatlariga yarasha ko'rgazmali qurollar yasashlari, musobaqalarga, ko'rik - tanlovlarga qatnashishlari alohida muhim ahamiyat kasb etadi va bola hayoti davomida zarur bo'lgan psixologik mehnatini, psixologik xislatlarini rag'batlantirishlariga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya ta'limiga psixologik jihatdan tayyorlash, qo'l mehnatini tashkil etishda ularga kerakli sharoitlarni yaratib berish va e'tiborliroq bo'lish talab etiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ish quolisiz, mahsulotsiz mehnat ta'limini tashkil etish maqsadga muvofiq. Yosh o'quvchida o'zi bajarayotgan ishga qiziqish, ongli munosabat, ko'nikma, malaka hosil qilishda ma'suliyatni xis etish kabi sifatlar mehnat tarbiyasi orqali o'quvchida sog'lom psixologik holat rivoj topishini hisobga olgan holda zarur choralar ishlab chiqishni ilmiy asoslash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 .Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. (Barkamol avlod - O'zbekiston taraqiyotining poydevori. "Sharq" nashriyoti, T 1997-yil.

2.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent, Ma'naviyat, 2008.

3.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.

4.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz.Toshkent, "O'zbekiston", 2016 yil, 56 bet.

5.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil,48 bet.

6.R.Mavlonova, O.T.Turaeva, K.Xoliqberdiev "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 1998